XALQ DEPUTATLARI QIZILTEPA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 6 - iyul VI-45-75-5-72-K/23 Qiziltepa tumani hokimligi

Qiziltepa tumanidagi “O‘rtaqo‘rg‘on” hamda “Xo‘jaqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘inidagi qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-635-sonli Qonunning 20-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 6-iyundagi 08-01489-sonli xulosasi, Qiziltepa tumani komissiyasi tomonidan “O‘rtaqo‘rg‘on” hamda “Xo‘jaqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘inidagi qabristonlarni nomlashga oid taqdim etilgan takliflarni muhokama qilib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarini nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining “O‘rtaqo‘rg‘on” hamda “Xo‘jaqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘inidagi qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Nomlanadigan geografik obyekt (qabriston)lar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimi maslahatchisi (E.Karimov), statistika bo‘limi

(Z.Tursunov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining tuman bo‘limi (A.Qudratov), Qurilish bo‘limi (F.Qurbonov), mutasaddi korxona, tashkilotlar mazkur qarorga muvofiq nomlanadigan geografik obyektlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Ichki ishlar bo‘limi (A.Abduraimov) tegishli tashkilotlar bilan nomlari o‘zgaradigan hamda yangi nomlanadigan geografik obyektlardagi yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman hokimi o‘rinbosari (X.Aliyev), Kadastr agentligining tuman bo‘limi (A.Qudratov), Qurilish bo‘limi (F.Qurbonov) bilan hamkorlikda nomlanadigan geografik obyektlarni yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar hamda peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror “Yangi Qiziltepa” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari (O‘.Istamov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (G‘.Safarov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **U.Fayziyev**

Xalq deputatlari Qiziltepa tuman
Kengashining
2023-yil 6-iyuldagi
VI-45-75-5-72-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi nomlanadigan ayrim geografik obyektlar RO‘YXATI

T/r	Geografik obyekt ning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Izoh
1	2	3	4	5	6
1	Qabriston	O‘rtaqo‘rg‘on MFY	Nomsiz	Obodmaskan	Qishloqning qarovsiz joyi qabriston qurilganidan buyon obod bir maskan bo‘lib qoldi, aholi tomonidan obod qilinib bugungi kunda daraxtlar va gullar bilan go‘zallik kasb etgan hamda gullab-yashnaganligi sababli.
2	Qabriston	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	Nomsiz	Xo‘jaqo‘rg‘on	Xo‘jaqo‘rg‘on mahalla aholisi tomonidan ushbu qabriston obod qilinib, xashar yo‘li orqali atrofi devor bilan o‘ralganligi, unga boruvchi yo‘l atroflari daraxt va gullar ekilib, doimiy parvarish qilinib kelinganligi sababli.